



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004



ISSN 2181-6875
9 772181 687004

2/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



2/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2024, № 2, fevral

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidova M.A., Odilova G.K.	O'zbek va jahon bolalar adabiyotida glyuttonik qahramonlar va yetakchi syujetlar tahlili	116
Сафин Д.Ш.	Особенности представления дополнительных данных в словарных статьях немецких лексикографических источников (на материале «Немецко-русского словаря разговорного языка» А.В. Безрукова)	122
Gasimov R.A.	The artistic-structural essence of monologues in the dramas by Jalil Mammadguluzade	127
Ёвкачева З.М.	Типы адресантов в аспекте языковой оценки: анализ писем М.И. Цветаевой	133
Rahmonova Sh.R.	O'zbek mumtoz adabiyotida va Navoiy ijodida ijtimoiy faol shaxs masalasi	137
Kasimova R.R., Saloyeva M.A.	Ingliz va o'zbek topishmoqlari genezisi va spesifikasi	144
“NAVOIY GULSHANI”		
Ibotova M.O.	Alisher Navoiy g'azaliyotida mahzun ko'ngul, g'amnok ruh tasviri	148
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Хикматов Ш.Ш.	Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларига доир халқаро стандартлар	150
Qarshiyev N.O.	Markaziy Osiyo mintaqasiga xos global muammolarga yechim topishda siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish istiqbollari	157
Маҳмудбоев Б.	Янги Ўзбекистонда ахборот хавфсизлигини амалга оширишнинг истикболли йўналишлари	162
Саъдуллаев Ж.Н.	Жиноят процесси иштироки сифатида гувоҳ иштироки: муаммо ва таклифлар	168
Сойибов Ф.Ф.	Эксперимент тергов ҳаракатининг процессуал жиҳатлари	173
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Рашидов Ў.У.	Бухоро амирлигининг сиёсий аҳволи	179
Ergashov Z.B.	Turkiston general gubernatorligining firma va kompaniyalar bilan savdo aloqalari	184
IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F.	Mintaqaviy statistikaning rivojlanish istiqbollari	189
Valiev O.Sh.	The role of FDI, ODA and remittances in the economic growth of Uzbekistan	193
Саъдуллаев О.Т.	“O'zdonmahsulot” АК таркибига кировчи “Don-xalq rizqi” АЖ фаолиятига таъсир қилувчи рискларнинг амалий таҳлили	199



Navoiy gulshani

ALISHER NAVOIY G‘AZALIYOTIDA MAHZUN KO‘NGUL, G‘AMNOK RUH TASVIRI

Ibotova Madina Otabek qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ibotovamadina@gmail.com

Sharq falsafasida jon va ruh tushunchalari turli falsafiy va diniy an‘analarga ko‘ra turlicha talqin qilingan. Mazkur muammo turli fanlar doirasida o‘rganiladi. Ruh va uning tabiati turli manbalarda falsafa, din va tasavvuf kabi mavzularda muhokama qilinadi. Mazkur tushunchalar adabiyotning ham muhim masalalari sirasi kiradi. Islom dinining asosi bo‘lgan Qur‘oni Karim ta‘limotiga ko‘ra ruh – hayot manbai. Qur‘onda insonning yaratilishi haqida ko‘plab oyatlar mavjud. Buning asosini “Sajda” surasidagi 9-oyatida o‘qishimiz mumkin: "Alloh uni (insonni) to‘liq shakllantirib, unga O‘z ruhidan pufladi." Ruh Xudoning ijodidir va inson tanasiga nafas berganda paydo bo‘ladi. Ruh tana bilan birlashar ekan, inson hayoti boshlanadi. O‘lim tufayli ruh tanani tark etadi va keyingi hayot boshlanadi. Demak, islomda ruh tushunchasi insonning yaratilishi, foni dunyodagi hayoti, o‘limi va boqiy olamdagi hayoti bilan bog‘liq muhim masala sifatida qaraladi. Bu haqda ilohiy kitobda shunday yoziladi: “Ruh Parvardigorimning amridandir va ilmingizdan sizga ozginagina berilgandir” (Isro surasi, 85-oyat). Bu oyat ruhning Alloh taoloning amri bilan borligi va inson ilmi uni bilishga chegaralanganligini ko‘rsatib turibdi.

Ruhning o‘lmasligi va uning oxirat bilan aloqasi ham Qur‘onda muhim masaladir. Insonning bu dunyo hayotidagi xatti-harakatlari ruhining oxiratdagi holatiga ta‘sir qiladi. Qiyomat kunida ruh qilingan yaxshilik yoki yomonlikning mukofotini oladi. Ulug‘ vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida “Gavdadagi eng issiq narsa ruh va ruhning paydo bo‘lish o‘rni yurakdir” [1], deydi. Ruh so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘atlarda kishining ichki holatini, psixik kechinmalarini, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi kayfiyati, jon, hayot degan izohlar berilgan. [3]

Mumtoz adabiyotda ham ruh kalimasi ko‘p qo‘llangan. Buni ulug‘ shoir Alisher Navoiy lirikasida ham kuzatishimiz mumkin. Alisher Navoiy ruh va jon, ruh va o‘lim haqidagi qarashlarini oshiq va ma‘shuq obrazlarining badiiy talqinlarini berishda o‘rinli foydalanildi. Alisher Navoiy g‘azallarda jon va ruhning tasvirini berar ekan, uning inson hayotidagi har bir hodisa bilan munosabatini yoritishga va shu orqali jon-ruhning qiymatini belgilashga harakat qiladi. Fikrimizni ulug‘ shoirning “Badoye ul -vasat” devonidan o‘rin olgan “ruh” radifli g‘azal tahlili orqali asoslashga harakat qilimiz:

Ey sening ko‘yung **harimi** tufrog‘i yuz pok ruh,

Solqinidin sovrulub ul nav‘kim xoshok ruh. [2]

Shoir g‘azalning dastlabki baytida **harim** – suyuqlik, ya‘ni ma‘shuqa oyog‘i tekkan tuprog‘ni “yuz pok ruh”ga tenglashtiradi. Shoir mubolag‘a orqali ma‘shuqani “yuz pok ruh” deb ta‘riflaydi. Bunda esa ruhning pok yaratilishi haqidagi e‘tiqodiy qarashlarga tayanilgan. Bu ruhning tebranishidan oshiqning ruhi “xoshok” singari sovrilgan. Demak, dastlabki baytda ruh- oshiq timsoli sifatida kelgan.

Ruh agar yuz **vajh** ila tufrog‘ing o‘lsa, ne ajab,

Lutf aro jisming bila chun teng emas yuz pok ruh.

G‘azalning dastlabki baytda ma‘shuqa oyog‘i tekkan tuprog‘ “yuz pok ruh”ga qiyoslangan bo‘lsa, ikkinchi baytda ruh (oshiq)ning yuz vajh – sabab bilan ma‘shuqa oyog‘i ostidagi tuprog‘ bo‘lish istagi tasvirlangan. Sadoqat–chin oshiqlikning asosiy belgisi. Ruhning tuprog‘ bo‘lishi shartlaridan ham biri sadoqatlikdir. Ruhning tuprog‘ bo‘lib evrilishi oshiq uchun sharaf sanalgan. Natijada oshiqlikda vafo va sadoqat ramzi aylanadi. Baytning ikkinchi misrasida “yuz pok ruh” lutf bilan xalq qilingan ma‘shuqa jismi bilan tenglasha olmaydi, deydi shoir. Bunday mubolag‘ali tasvirlardan ko‘zlangan maqsad ma‘shuqaning go‘zalligini tasvirlashdan iborat.

Mumtoz adabiyotda oshiqning ishq yo‘lidagi chorasizligi, ma‘shuqa ishq oldidagi ojizligi, notavonligini tasvirlash an‘ana tusini olgan. Albatta, bunday tasvirlar ma‘lum bir maqsadga bo‘ysundiriladi. Keltirganimiz g‘azal baytlarida ham shunday tasvirni kuzatamiz.

Xilqatim bog‘ida ul gul **hayf**kim, bordur manga,

Zor tan, majruh jon, mahzun ko‘ngul, g‘amnok ruh.

G‘azalning 3- baytida lirik qahramon o‘z yaratilishi xususida mulohaza yurityapti. U **xilqat** – yaratilish, ya‘ni taqdirida “ul gul” – ma‘shuqaning borligidan (hayf) afsusda. Baytning ikkinchi baytida “afsus”ning boisi

tadrij vositasida ko'rsatilgan. Boisi, oshiq "zor tan, majruh jon, mahzun ko'ngul, g'amnok ruh"ga aylanib qolgan. Shoir baytda tan, jon, ko'ngil, ruh tushunchalariga alohida urg'u beradi. Mazkur tushunchalar xalq tasavvurida ham, tasavvuf ta'limotida ham bir-biridan farqlanadi.

"Jon" kishining tanida bo'lganda unga hayot bag'ishlaydi, uni tabiat va jamiyatning faol a'zosi bo'lishiga imkon tug'diradi, aql va fe'l-atvor beradi. Ibtidoiy tasavvurlarga ko'ra xalq orasida jon, ruh haqida turli xil tushunchalar mavjudki, ularda ba'zan jon va ruh bir narsa deyilsa, ba'zan ular keskin farqlanadi. Insoniyat tasavvuricha, ruh hech qachon o'lmaydi, uni Xudo ato qiladi va Xudo qaytib oladi, shundan so'ng ham u tanadan ayri, abadiy yashaydi. Ruhni odamlar, asosan, inson vafotidan so'ng tanadan ajralib, hech qachon o'lmaydigan, ko'zga ko'rinmas, ammo o'zi hamma narsani ko'rib (uchib) yuradigan deb tasavvur qilishgan va bu tasavvur hozirgacha saqlanib qolgan. Bunday talqindagi ruh kishilar orasida "arvoh" ("ruh" so'zining ko'plik shakli) deb ham yuritiladi. Demak, shoir baytda oshiq holatining oxirgi manzili sifatida "ruh"ga urg'u berishda uning asl yaratuvchisi Alloh ekanligiga va Unga qaytuvchi ham faqat ruh ekanligini nazarda tutgan.

Ul quyosh qasrig'a mayl aylar tanimdin chiqsa jon,

Kimsa o'lgandekki, bo'lg'ay **ozimi aflok** ruh.

G'azalning to'rtinchi baytida "jon chiqishi" bilan bog'liq tasvirlar keltirilgan. Jon inson tanasida muayyan vaqtdagina "sayr-u sayohat"da bo'ladi. Oshiq vujudidagi jonning tark etishiga ma'shuqa ishq sabab bo'lgan. Ruhga aylangan jon "ul quyosh" – ma'shuqaning qasriga sayr qilishni istaydi. Bu xuddi kishi o'lganidan keyin ruhning aflok - osmonga uchishi kabi. Demak, bayt masminida da inson o'lgandan keyin ruhning uchib yurishi bilan bog'liq xalq qarashlari asos qilib olingan.

G'azalning keyingi baytda ham ruh bilan bog'liq tasvirlar ma'shuqa tasviri bilan parallelkda tasvirlangan.

Jon fido bo'lsun sangav-u ruh sadqangkim, emas,

Jon chuchuk la'lingdeg-u qadding kebi **cholak** ruh.

Oshiq joni va ruhini ma'shuqa uchun sadqa bo'lishni istaydi. Ikkinchi misrada jon va ruhini tashbeh vositasida ma'shuqa sifatleri bilan muqoyasa qiladi. Jon – ma'shuqaning la'liga, **cholak** - kelishgan, xushbichim qaddi ruhga o'xshatilgan.

Mo'min o'l **ajsod hashrig**'av-u da'vo qilma ko'p,

Kim, azob-u ne'matin tongla qilur idrok ruh.

Oltinchi baytda qiyomat kuni bilan bog'liq qarashlar o'z ifodasini topgan. **Ajsod hashri** - o'liklarning to'planish vaqti. Oshiq o'z ruhini mo'minlik sifati bilan bezanishini istaydi. Shuning uchun qiyomat kuni ko'p da'vo qilma, chunki ruh qiyomatda azobni ham, ne'matni ham his qiladi, deydi shoir. O'liklarning to'planadigan joy - Mahshar maydoni. Bu maydon tasviri diniy manbalarda keng va batafsil berilgan. Ta'kidlashicha, ruh o'z vujudiga qaytib kirib, bu dunyodagi amallari uchun Mahshar maydonida yo siylanadi, yo qiynaladi, ya'ni barcha amallari uchun hisob beradi.

Tig'i ishqidin Navoiyg'a ne dahshat, negakim

Telbadur jonu fidoidur ko'ngul, **bebok** ruh.

G'azal maqtasida jon, ko'ngul, ruhning sifatleri berilgan. Agar g'azalning uchinchi baytiga diqqat qilsak, bu silsilada "tan" ham tilga olinganini ko'ramiz. Bu bilan shoir tanning zaminini, ruhning ilohiy ekanligiga ishora qiladi. Chunki tana moddiy, ruh esa ma'naviy yuksalishga qodir. Oshiq vujudi yo'qlikka yuz tutgan. Undan "menlik" yo'qolgan. Shuning uchun uning joni telba, ko'ngli fido, ruhi bebok. **Bebok** – qo'rqmas degani. **Bebok** ruh ishq tig'ining ozorlaridan dahshatga tushmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotida ruh va uning tasviri chuqur ramziy ma'nolarga ega. Ruh inson tanasidan ajralib turadigan va o'lmaslikka ega bo'lgan ruhiy mavjudot sifatida qaraladi. Ruh insonning ichki borlig'ini ifodalaydi va ma'shuqa (Xudo)ga sodiqlik ramzidir. Shuning uchun mumtoz adabiyotda, ayniqsa, Alisher Navoiy g'azaliyotida ruh tushunchasi ishq, ayriliq, sog'inish va ruhiy izlanishlarning ramziy ifodasi sifatida qo'llaniladi. Bu tushunchalar insonning o'zini moddiy dunyodan ajratib, ma'naviy voqelikni kashf etishga intilishini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma). 1-jild. –T.: 1993.
2. Alisher Navoiy Badoye ul-vasat. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. V jild. –T.: 1990.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. – M.: 1981.